

**KOLLABORATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA
SINF DAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Davlatova Muaddam Baxriddinovna.

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali 1- bosqich magistranti.
Namangan shahar MMTB ga qarashli 88 sonli maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi.*

Annotatsiya: *kollaborativ yondashuv, o'quvchilarning birgalikda ishlashini, fikr almashishini va o'zaro yordam berishini ta'minlaydi, bu esa ularning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi. Kollaborativ yondashuv asosida tashkil etilgan sinfdan tashqari ishlar orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, jamoada ishlashga va muammolarni hal qilishga o'rgatishning ahamiyati ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, metodika, ta'lim jarayoni, kollaborativ yondashuv, ijtimoiy ko'nikmalar, muammolarni hal qilish, muammolarni hal qilish, tashkil etish usullari, ta'lim sifatini oshirish, jamoada ishlash.*

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar kontseptsiyasida tarbiyaviy tadbirlarni takomillashtirish zaruriyati, alohida takidlangan: siyosiy tuzumiing o'zgarganligi, yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanib borishi, tarbiyaviy ishni yaxshilashda davr talabiga javob beradigan yangicha tamoyillari goyalar, ish uslubiyatlarini ishlab chiqish hamda o'qituvchining ijodkorlik faoliyatinn qaytadan qurmoq lozimdir. Tarbiyachining navbatdagi vazifasi bolalar jamoasini tashkil qilish, tarbiyalash va jipslashtirish borasidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib, ilgor tajribalarga suyanib o'quvchilarni tarbiyaviy jarayonda o'rtoqlik-do'stlik, o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, o'z-o'zini tarbiyalash va boshqarish kabi jamoatchilik sifatlarini tarbiyalash mahoratini o'zlashtirishdan iborat. Ular: sinfning boshlangich jamoasini tarbiyalash va ularda o'zaro munosabat aloqalarini yaratish, o'quvchilar kundalik faoliyatlarining hamma qirralarida jamoaga jipslashtirish, shaxsiy manfaatdan jamoa manfaatini yuqori qo'yishga o'rgatish, jamoada bir-biriga mehr-oqibatli, muruvvat va sahiylik, do'stona hamkorlik mavjud bo'lsa, u katta tarbiyaviy kuchga aylanadi. O'qituvchi jamoa azolarini yangi sharoitga (maktabning I sinfdan boshlab) moslashuv davrida ularga ishonch, xurmat, xushmuomalalik, talablarni to'g'ri qo'ya bilish shu bilan birga o'quvchini tushunish va eshita bilish mahoratiga ega bulish talab etiladi;

2. O'quvchilar jamoasidagi etaklovchi kuch tayanch o'zagini tanlash;
3. Jamoa azolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish;
4. Jamoada yangi anana, qonun-qoidalarni dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish;
5. Jamoa istiqbolini davr talabi bilan moslashgan holda belgilash talab qilinadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tarbiyaviy tasiri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoasining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishlariga bogliqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlar har xil o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib keladi. Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Har xil turdagi faoliyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda - sinfdan tashqari va darsdan tashqari - mashg'ulotlarni shunday qurish kerakki, ularning o'tkazilishi bolaning psixologik va jismoniy yukini tushirish, shaxsiy va meta-kabi shakllanish faktidir. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar mashg'ulotlar majmui bilan cheklanib qolmasdan, balki maqsadli qurilganligi va rejalashtirilgan natijalarga erishishni ta'minlashi muhim. Sinfdan tashqari ish shakllarining quyidagi ko'rinishi eng keng tarqalgan: individual, doira, birlashtiruvchi va ommaviy. Individual ish - bu individual talabalarning o'zo'zini tarbiyalashga qaratilgan mustaqil faoliyati. Sinfdan tashqari ishlar — umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg'ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar (maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar o'tkazish, viktorina va ko'rgazmalar uyushtirish, tabiat qo'yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish), to'garak ishlari (o'quvchilarning turli to'garaklar, sport seksiyalari, ansambllardagi qatnashishlari), mustaqil ishlar (o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishi, kolleksiya to'plashi, texnika, musiqa, tasviriy san'at, chizmachilik va sh.k. bilan mustaqil shug'ullanishi) ni ko'rsatish mumkin.

Kollaborativ yondashuv, o'quvchilar o'rtasida o'zaro ta'sir va hamkorlikni rag'batlantiruvchi ta'lim uslubidir. Bu yondashuv orqali o'quvchilar bir-biridan o'rganadilar, o'z fikrlarini ifoda etishadi va birgalikda muammolarni hal qilishga harakat qiladilar. O'qituvchi esa bu jarayonda fasilitator sifatida ishtirok etadi, ya'ni o'quvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatadi va ularning faoliyatini. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarga yangi bilimlarni amalda qo'llash, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish imkonini beradi. Ular orqali o'quvchilar: o'quvchilar birgalikda loyihalar ustida ishlash orqali jamoaviy ruhni rivojlantiradilar. sinfdan tashqari faoliyatlar davomida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga o'rganadilar. O'z fikrlarini yaratishda va yangi g'oyalarni ishlab chiqishda ijodkorlik ko'nikmalarini. Har bir sinfdan tashqari faoliyat uchun aniq maqsadlarni belgilash zarur. Bu maqsadlar o'quvchilarning

qiziqishlari va ehtiyojlariga mos kelishi lozim. O'quvchilarni turli xil ko'nikmalarga ega guruhlariga ajratish, ularning o'zaro hamkorligini oshirishga yordam beradi. Har bir guruhda teng imkoniyatlar yaratish muhimdir. Sinfdan tashqari faoliyatlar uchun turli xil ijodiy va qiziqarli loyihalar rejalashtirilishi kerak. Masalan, ilmiy tadqiqotlar, san'at ko'rgazmalari yoki sport musobaqalari. O'quvchilar o'zaro baholash jarayonida bir-birining ishlariga konstruktiv fikr bildirishlari kerak. Bu ularga o'z bilim va ko'nikmalarini baholash imkonini beradi. Har bir faoliyatdan so'ng natijalarni tahlil qilish va baholash, o'quvchilarga o'z xatolaridan o'rganishga yordam beradi. Kollaborativ yondashuv asosida boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarning bilimlarini yanada kengaytirish, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar bu yondashuvni qo'llab-quvvatlab, o'quvchilarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlashlari zarur. Bu orqali kelajak avlodni muvaffaqiyatli va mustaqil shaxslar sifatida tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 77
2. Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги қонуни. палатаси томонидан 2020 йил 19 майда қабул қилинган Сенат томонидан 2020 йил 7 августда маъқулланган. ЎРҚ-637. 23.09.2021. <https://lex.uz/ru/docs>
3. BOSHLANG'ICH SINFDAN O'QUVCHILARIDA DARSDAN VA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR O'TKAZISHNING NAZARIY ASOSLARI. Kasimov Asror Abdulloyevich.
4. M. Tilakova, S. Qoraev. (2020). RECOMMENDATIONS FOR STUDENTS' CREATIVE ABILITY DEVELOPMENT. Academic Research in Educational Sciences, 1(4), 184-189.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinflarda-sinfdan-tashqari-ishlarni-tashkil-etishning-zamonaviy-tamoyillari-1/viewer>